



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR - MAY
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-may oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3864,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-mayga oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,2 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 8,7 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 3,6 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2022-yil yanvar-may

Tumanlar miqiyosida, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. soʻmda

Tumanlar nomi	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Gʻallaorol tumani	3 888,3	7 949,4	4061,1
Sharof Rashidov tumani	5 192,6	9 060,0	3867,4
Zomin tumani	5 082,2	3 482,8	-1599,4
Jizzax shahri	23 814,4	23 200,4	-614
Zafarobod tumani	2 902,9	3 503,6	600,7

Jami sanoat ishlab chiqarishi togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumaniga toʻgʻri kelib 4,7 % ni Zomin tumani 2,8 % va Gʻallaorol tumani 0,9 % ni tashkil etdi.

60,3 %

2021- yil

72,8 %

2022- yil


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-may

FHI,% da



2022- yilning yanvar-may oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3640,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,2 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-may


92,0 %

2022-yil yanvar-may

94,2 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida o'rtta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 23,6 % (12,0 %) ni , o'rtta-quyi texnologiyali – 19,0 % (18,6 %) va quyi texnologiyalisi - 51,6 % (61,4 %)ni tashkil etdi.


■ 2021- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,8 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 46,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,3 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 83,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 35,3 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,5 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,1 % (2021- yilning yanvar –may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	26 162,1	14 584,4	-11 577,7
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	26 327,4	29 361,7	3 034,3
Paxta chigiti, t.	40 436,8	23 150,4	-17 286,4
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	2 242,2	4 258,3	2 016,1
Paxta linti, t.	2 469,9	1 089,7	-1 380,2
Trikotaj polotnolar, t.	1 430,0	718,0	-712,0

2022- yilning yanvar-may oylar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 29,4 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (11,5 % oshgan), 14,6 ming tonna paxta tolasi (49,0 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 23,1 ming tonna paxta chigiti 48,0 % ga) kamaygani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

111,5 %


Paxta tolasi, t.

51,0 %

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 2,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 85,6 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-may oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,3 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 83,9 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 51,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 150,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,1 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 556,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 25,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 480,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 58,4 % ni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 93,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 35,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 101,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 22,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1203,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 126,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 %, fizik hajm indeksi 88,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 159,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 141,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 151,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 21,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni, fizik hajm indeksi 78,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 145,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 42,0 % ga oshgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 84,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 98,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 135,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,8 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	98 662,8	100 028,8	1 366,0
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	12,1	3,3	-8,8
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	36 547,5	35 105,9	-1 441,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	27 360,7	27 890,6	529,9
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9 276,5	9 507,7	231,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 0,4 % ga , shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 17,9 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1848,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 154,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 47,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-may

22,7%

2022-yil
yanvar-may

23,3%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-may

77,3%

2022-yil
yanvar-may





76,7%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 23,3 % (2021- yil yanvar-may oylarida 22,7 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 35,4 % ni va Paxtakor tumani 19,0 % ni, Do'stlik tumani 8,0 % ni hamda Zafarobod tumani 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumanida (336,1 %), Jizzax shahrida (184,2 %), Sharof Rashidov tumanida (200,9 %) hamda Paxtakor tumanida (223,8 %), qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 22,9 % shuningdek, G'allaorol tumani 41,0 %, ni, hamda Paxtakor tumani 9,0 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 19,1 % shuningdek, G'allaorol tumani 52,5 %, Paxtakor tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

465,1 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-may

916,9 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-may

1417,4 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-may



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2020- yil

92,6 %

02


2021- yil

133,1 %

04

2022- yil

153,1 %






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 35,4 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 8,0 % ni, Paxtakor tumani esa 19,0 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 30,1 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 20,2 % ni, Zafarobod tumani esa 15,8 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyati

2020- yil

1993,2 mlrd. so'm

2021- yil

2537,9 mlrd. so'm

2022- yil

3864,3 mlrd. so'm



2020- yil

101,9 %

2021- yil

119,1 %

2022- yil

106,2 %

Jizzax viloyati

106,2

3864,3

Jizzax shahar

108,3

1162,9

Arnasoy

100,1

104,3

Baxmal

99,3

31,4

G'allaorol

205,4

781,8

Sharof Rashidov

105,5

187,8

Do'stlik

97,4

296,9

Zomin

101,6

121,6

Zarbdor

107,9

129,5

Zafarobod

142,1

609,2

Mirzacho'l

104,0

70,4

Paxtakor

107,0

211,0

Forish

112,0

129,4

Yangiobod

98,8


28,1

FHI, % da

mlrd. so'm



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (6 199,6 ming so'm), Zafarobod (11 781,0 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (4 356,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 670,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 876,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,5 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1009,4 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 2 256,4 ming so'mni, Paxtakor tumanida – 2 152,7 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 4 220,7 ming so'mni tashkil etdi.

Jizzax viloyati



o'sish sur'ati

ming. so'm

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3844 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1141 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,7 % i) Jizzax shahriga, 665 tasi (17,3 %) Sharof Rashidov tumaniga, 400 tasi (10,4 %) G'allaorol tumaniga, 305 tasi (7,9 %) Zomin tumaniga va 209 tasi (5,4 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

